



Dilbar FAYZIXODJAEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.d
E-mail: dfayzixodjaeva@gmail.com

F.f.d., prof. B.To'raev taqrizi asosida

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE FORMATION OF AN INTEGRAL WORLDVIEW

Annotation

The article explores the influence of human-artificial intelligence relationships on the transformation of human thinking, particularly on the alteration of worldview. It examines the characteristics of the two poles of a new integral worldview, forming under the influence of artificial intelligence, as well as the intermediate states between them.

Keywords: artificial intelligence, worldview, integral worldview, knowledge, Ken Wilber, paradigm of thinking.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕГРАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ

Аннотация

В статье исследуется влияние взаимоотношений человека и искусственного интеллекта на трансформацию человеческого мышления, в частности, на изменение мировоззрения. Рассматриваются особенности двух полюсов нового интегрального мировоззрения, формирующегося под воздействием искусственного интеллекта, а также промежуточные состояния между ними.

Ключевые слова: искусственный интеллект, мировоззрение, интегральное мировоззрение, знание, Кен Уилбер, парадигма мышления.

SUN'IY INTELLEKT VA INTEGRAL DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya

Maqolada inson va sun'iy intellekt munosabatining inson tafakkuri transformatsiyasiga ta'siri - dunyoqarashning o'zgarishi masalasi bilan bog'liq xolda tadqiq qilingan. Unda sun'iy intellekt ta'sirida shakllanayotgan yangi integral dunyoqarashning ikki qutbi va ular o'rtasidagi oraliq xolatlariga xos xususiyatlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, dunyoqarash, integral dunyoqarash, bilim, Ken Uilber, fikrlash paradigmasi.

Kirish. XXI asr insoniyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi – bu sun'iy intellekt (SI) asridir. Sun'iy intellekt texnologiyalari faqat texnik yoki iqtisodiy sohalarnigina emas, balki inson ongi, tafakkuri va dunyoqarashini ham chuqur o'zgartirmoqda. SI inson tafakkurining transformatsiyasi - yangi modeli sifatida namoyon bo'lmoqda. U ma'lumotni qayta ishlash, qaror qabul qilish va bilim yaratish jarayonlarida inson bilan hamkor bo'lmoqda. Bu esa insonning SI bilan faol muloqotini (interaktivlik) ta'minlaydi va tafakkur tarzini muayyan algoritmlar asosida shakllantiradi.

Sun'iy intellekt inson fikrini rakamli modellar orqali ifodalash imkonini berib, ong va mashinaning o'zaro ta'sirini kuchaytirmoqda. Natijada inson faqat o'zining sub'ektiv tajribasiga emas, balki SI ma'lumotlariga tayangan ratsional tizim sifatida namoyon bo'lmoqda.

Inson va SI munosabatidagi yangi antropologik burilishning yuz berishi uning tabiatdagi o'rnini qayta belgilamoqda. Avval inson "aqli mavjudot" sifatida ta'riflangan bo'lsa, endilikda aql sun'iy tizimlar tomonidan ham namoyon bo'lmoqda. Bu holat insonga nisbatan yangi antropologik qarashlarni vujudga keltirdiki, natijada inson o'zini tabiat ustidan hukmron deb emas, balki aqli tizimlar bilan birga ekotizimning bir qismi sifatida anglay boshladi. Bu esa gumanistik va texnologik integratsiyani boshlab berish bilan birga, inson tafakkuri transformatsiyasiga, dunyoqarashining o'zgarishiga olib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Biz ushbu maqolada bu jarayonni imkon qadar falsafiy tahlil qilishni maqsad qilib qo'ydik. Buning uchun avvalo "dunyoqarash" tushunchasining

mohiyatini, ta'rifini aniqlab olish zarur bo'ldi. Bu tushunchaning ta'rifini "Falsafa" dan yozilgan darsliklardan oldik. Bu darsliklarda "dunyoqarash- bu insonning ijtimoiy guruh yoki qatlarning voqelikka bo'lgan munosabatini belgilaydigan tamoyillari, qarashlari, qadriyatlarini, e'tiqodlarini tuzilishidir" [5,9.], "dunyoqarash - insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimi, shuningdek ularning mazkur munosabatlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallanishidir" [6,9.] -deb ta'riflangan. Bu ta'riflarda urg'u asosan insonning tashqi olamga bo'lgan munosabatlariga berilgan. Lekin har qanday munosabatlar, ideal, e'tiqod, qadriyat va b.larning asosini bilim tashkil etadi. Shu bois biz quyidagi ta'rifni ma'qul ko'rdik: "Dunyoqarash insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'zni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir" [4,13] Dunyoqarashning Ken Uilber taklif etgan modelini asos qilib oldik. SI ning insonga va jamiyatga bo'lgan ta'siri haqidagi respublikamiz va xorij olimlarining ilmiy nashrlarda chop etilgan tadqiqotlarini o'rganib chiqib, ushbu masalada o'z nuqtai nazarimizni belgilab oldik.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda konseptual, qiyosiy va germenevtik tahlil shuningdek, argumentlashning mantiqiy usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Bilimning taraqqiyoti bilish vositalarining takomillashuvi va bilish ob'ektlarining kengayib, murakkablashib borishi bilan proporsional bog'liq. Hozirgi kunda SI bilish vositasi sifatida insonning hayotiga chuqur kirib

bormoqda. SI nafaqat yangi texnologiya, u yangi falsafiy voqelikdir. U inson tafakkurini ratsional, integral va axborot asosida qayta shakllantirmoqda. Natijada, zamonaviy sivilizatsiya "alohida inson tafakkuri"dan "inson va SI hamkorligidagi integral tafakkur" bosqichiga o'tmoqda. Bu jarayon insoniyatning intellektual va ma'naviy kelajagini belgilamoqda va "yangi integral dunyoqarash" deb atalmoqda. U inson va axborot tizimlari, tabiat va texnologiya, moddiy va ma'naviy borliq o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglatadi.

Integral dunyoqarash nima? Zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda bu tushunchaning uch xil talqini beriladi. Birinchi talqiniga ko'ra integral dunyoqarash deganda Sharq va G'arb g'oyalarning sintezi tushuniladi. Ikkinchi talqiniga ko'ra jamiyat va inson ma'naviy madaniyati barcha sohalarining integratsiyasi tushuniladi. Uchinchi talqiniga ko'ra integral dunyoqarash umumiy universal, umuminsoniy dunyoqarash bo'lib, unda tabiiy va gumanitar fanlar birlashadi [1].

So'nggi vaqtda bu masalada amerikalik faylasuf va yozuvchi Ken Wilberning individual va kosmik ongning (borliqning barcha ko'rinishlari va onging turli darajalari) birligiga asoslangan integral yondashuvi yetakchilik qilmoqda. Bu yondashuvda ong, inson va koinotga oid turli sohalarining o'xshash tomonlari umumlashtirilib, dunyoqarashni tashkil etuvchi elementlar yangi rakursda beriladi. Uilber o'z integral nazariyasida butun va bo'lak o'rtasidagi munosabatni tushuntirishda "bo'lakning o'zi ham butundir" degan postulatga asoslanadi. U o'zaro bog'langan to'rtta fundamental olamni to'rtga bo'lingan kvadrat shaklida tasvirlaydi. Kvadratning chap yuqori qismi "men"ni – alohida insonning introspektiv olamini, maqsadini, o'z menini anglashini; kvadratning chap pastki qismi "biz"ni – inson mansub bo'lgan madaniyat – munosabat, kommunikatsiya, tushunish, talqin qilish olamini bildiradi. Kvadratning o'ng yuqori qismi "u" – voqelikni, men ob'ekt sifatida o'rganadigan olamni, kvadratning o'ng pastki qismi "ular" – tashqi kollektiv olamni, ijtimoiy tizimlar to'rini ifodalaydi. Uilberning ta'kidlashicha, bu olamlar inson bilimlarining tabiiy taraqqiyoti natijasida shakllangan bo'lib, har bir insonning dunyoqarashi shu kvadratning birligida va evolyusiyasida shakllanadi [3]. Aytish mumkinki, Uilber integral dunyoqarashni bir butun yaxlit tizim sifatida talqin qiladi. Biz uning integral yondashuviga asoslanib, integral dunyoqarashni o'z o'zidan o'zining qismlarini paydo qiluvchi va har bir qismining o'zi butundan iborat bo'lgan fenomen sifatida ta'riflashimiz mumkin. Bunday dunyoqarashda Sharq va G'arb, bilim va e'tiqod, fan va din, an'ana va innovatsiya bir biriga qarshi qo'yilmaydi, ularga birlikda, bir butunning alohida tomonlarini tashkil etuvchi butun sifatida qaraladi.

Integral dunyoqarash bugungi kunda zamon talablariga mos fikr yuritish uslubidir. Ma'lumki, fikrlash uslubini-bu ma'lumotni qayta ishlashning o'ziga xos usuli bo'lib, u odamning bilimiga ega bo'lishini, fikrlarni tartibga solishini, qarashlar va fikrlarni shakllantirishini, shaxsiy qadriyatlarini qo'llashini, muammolarni hal qilishini, qarorlar qabul qilishini va rejalashtirishini belgilaydi. Fikrlash uslubida odatda quyidagi tarkibiy elementlar ajratiladi: dunyo tasviri; voqelikni bilish usullari; aqliy faoliyatning usullari va standartlari; qadriyatlar; an'analar; olingan bilimlarning haqiqat mezonlari; ma'lum bir odamning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan jihatlar. Integral dunyoqarashda dunyo tasviri men va u, biz va ularning birligida, umumiy tomonlarining birlamchi o'ringa qo'yilishida, tabiat va insonning bir butun yaxlitligida olinadi. Munosabatlar "hukmron va tobe", "kuchli va kuchsiz" nuqtai nazaridan baholanmaydi.

Voqelikni bilish usullarida bir chiziqlik emas, ko'pchiziqlikka urg'u beriladi. Empirik, ratsional va irratsional bilish usullari birlashib ketadi, ular o'rtasiga to'siq qo'yilmaydi [2]. Integral dunyoqarashda diniy, milliy va dunyoviy

qadriyatlarining uyg'unlashuvi amalga oshadi. Natijada qadriyatlar insonlarni birlashtiruvchi vasitaga aylanadi. Insonning shaxsiy qadriyatlari fikrlash usulida aks etadi.

SI integral dunyoqarashning shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Ma'lumki, hech bir narsa mutlaq yaxshi yoki mutlaq yomon bo'lmaydi. Shu bois, yuqoridagi savolga javob berganda SIning ham ijobiy, ham salbiy ta'sirini ko'rish mumkin. Biz avvalo SIning bilim olish vositasi sifatidagi imkoniyatlarini so'ngra bu bilimlarning integral dunyoqarashni shakllantirishidagi ta'sirini tahlil qilamiz.

SIning, bilim olish vositasi sifatida, integral dunyoqarashning shakllanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta'siri mavjud. Bu ta'sir keng qamrovli bo'lib, jamiyat, fan va har bir insonning shaxsiy hayotigacha kirib boradi. SI ning bilim olish jarayoniga ijobiy ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

cheksiz miqdordagi ma'lumotni tezkor tahlil qilish va umumlashtirish imkonini beradi. Bu esa insonlarga yangi bilimlarni tezroq o'zlashtirish, murakkab muammolar yechimini topish va ilmiy kashfiyotlar qilishda yordam berib, dunyo haqidagi tasavvurni kengaytiradi;

odamlar va tashkilotlar SI ning analitik vositalari yordamida ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo'ladi. Bu ratsionalizm va mantiqqa asoslangan dunyoqarashni mustahkamlaydi;

insonlarga ijodiy jarayonlarda sherik bo'lib, yangi san'at asarlari, musiqa yoki g'oyalar yaratishga yordam beradi. Bu esa insonning o'z ijodiy salohiyatiga bo'lgan ishonchini oshiradi;

har bir insonning ehtiyojlariga mos keluvchi kontent, mahsulot va xizmatlarni taqdim etadi, bu esa insonning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qoniqtirishga, qadriyatlarining oydinlashuviga va hayot sifatini oshirishiga yordam beradi;

iqlim o'zgarishi, kasalliklar tarqalishi kabi global muammolarni tahlil qilishda katta rol o'ynab, insoniyatni birdamlikda harakat qilishga undaydi.

SI tez va tayyor, tushunarli javob berayotgani sabab, uning bilim olish jarayoniga salbiy ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

tanqidiy va mustaqil fikrlash susayadi, ya'ni mavjud muammoning yechimini mustaqil izlanishga ehtiyoj kamayadi, «javob topish» o'rniga «javob olish» odati shakllanadi;

tayyor referat, diplom, hatto dissertatsiya ishlarini SI ning yozib berishi mumkinligi, bilimni tekshirishning adolatli mezonlarini buzadi, plagiatga yo'l ochadi va ilmda halollik qadrlanmay qo'yadi. Bu esa akademik muhitni jiddiy zaiflashtiradi;

foydalanuvchilar axborotni filtrlashga va to'g'ri manbani tanlashni o'rganishga intilmaydilar, ma'lumotlarni izlashda faqat SI javoblariga ishonib qoladilar. Natijada chin, to'g'ri ma'lumot bilan yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotni ajratish (tanish) qobiliyatlari pasayadi;

foydalanuvchilarning ruhiy va ijtimoiy ko'nikmalari zaiflashishi natijasida ularning muloqot, nutq, jamoaviy fikr bildirish ko'nikmalari pasayadi;

foydalanuvchilarda kreativ fikrlash o'rnini tayyor javoblar egallaydi, mustaqil ijod qilish kamayib, «qolipbozlik» kuchayadi;

SIga haddan tashqari bog'liqlik real tajriba, amaliyotni kamaytiradi, axborotni qayta ishlash o'rniga uni avtomat ravishda qabul qilishga odatlaniladi, «axborot» mustaqil fikrlashdan ustunlik qila boshlaydi;

xujjatlar, yozilgan matn, savol va qarorlar SI servislarida avtomat ravishda saqlanib qolishi shaxsiy ma'lumotlarni xavf ostiga qo'yadi.

SIning bilish jarayoniga ijobiy va salbiy ta'sirini imkon darajada aniqlab oldik. Endi integral dunyoqarash

shakllanishiga ta'sirini "Men" va "U", "Biz", "Ular" munosabatida tahlil qilish mumkin.

Sining bilish jarayoniga ijobiy ta'sirida "U" (voqelik) haqida bilimlarining kengayishi, "Biz" madaniy muhitda o'zaro tushunishning, madaniyatlararo muloqotning samaradorligini ortishi, "Ular" ijtimoiy tizimlarda raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi hayot sifatining yuksalishi "Men"ni intellektual rivojlantiradi va u pozitiv integral dunyoqarashga ega bo'ladi.

Sining bilish jarayoniga salbiy ta'sirida "Men"ning "U" bilan bo'lgan munosabatida voqelik haqidagi bilimlar faqat SI axborotlari asosida shakllanadi; "Biz" bilan bo'lgan munosabatida, ya'ni madaniy muhitda individualizm kuchayadi, "Men"ning o'zaro muloqotga kirishish ko'nikmasi susayadi; "Ular", ya'ni ijtimoiy tizimlarda raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi ish o'rinlarining qisqarishiga, yengil hayotga bo'lgan intilishning kuchayishiga olib keladi; "Men"da mustaqil ijod qilish kamayib, bir qolipda fikrlash natijasida negatív integral dunyoqarash shakllanadi.

Sining bilish jarayoniga ikki qutbli ta'siri sof xolda namoyon bo'lmaydi. Bu ta'sir ikki qutb oralig'idagi xolatlarda namoyon bo'ladi. Shu sabab sof pozitiv va sof negatív integral dunyoqarash real voqelikda uchramaydi. Yuqoridagi fikrlar aqliy mushohada natijasi bo'lib, mavjud muammoni tushunish uchun xizmat qiladi. Bu jarayonni kuzatish, ijtimoiy so'rovnomalarni izchillik bilan o'tkazish va natijalarini qiyosiy tahlil qilish individual va ijtimoiy dunyoqarashning transformatsiyasi qanday yo'nalishda va qaysi omillar ta'sirida yuz berayotganini aniqlashga imkon beradi. Natijada shu xolatga mos qarorlarning qabul qilinishi, ma'lum darajada jarayonni boshqarishga yordam beradi. O'zbekiston Oliy Majlisi Senatining 2025 yil birinchi noyabr kuni bo'lib o'tgan majlisida sun'iy intellektdan foydalanishni tartibga soluvchi qonunning muhokama qilinishi yuqoridagi fikrning yaqqol dalilidir.

SI jadallik bilan inson hayotiga kirib kelgan bir davrda, yoshlar dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishning muhim jihatlaridan biri tanqidiy tafakkurni rivojlantirishdir. Bu insonga axborotni tahlil qilish, yuzaki va ziddiyatli jihatlarini

aniqlash, empirik ma'lumotlar va ratsional argumentlar asosida o'z nuqtai nazarini shakllantirish, ilmiy farazlarni tekshirish, dalillarni baholash imkonini beradi. Tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun mantiq ilmini, uning zamonaviy yo'nalishlaridan ko'p qiymatli mantiq va savol-javob mantig'i (interrogativ mantiq) ni o'rganish zarur. Ko'p qiymatli mantiq masalaning faqat ikkita emas, balki ko'plab yechimlarga egaligini va ularni aniqlash usullarini o'rgatsa, interrogativ mantiq dialog, ya'ni savol-javobni tashkil qilish, savol va javobning turlari va qo'llash usullari haqida bilim beradi.

Integral dunyoqarashni shakllantirish ta'lim-tarbiya sohasida qanday natijalarga olib keladi? Integral dunyoqarashni shakllantirish insonning tushunchalar olamining kengayishiga, voqelikni adekvat aks ettirishga, voqea va xodisalarga ziddiyatlar to'qnashuvi sifatida emas, hamkorlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida yondashishga o'rgatadi. Muxtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan ekanmiz, bunga faqat ilm ma'rifat va innovatsiya orqali erisha olamiz. Bu bugungi zamon talabi"[1]

Xulosa va takliflar. Integral dunyoqarashni shakllantirish - shaxs identikligini saqlagan xolda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, maishiy, axloqiy streotiplar doirasini kengaytirish, uni boshqalar bilan o'zi o'rtasidagi farq qiluvchi yoki ziddiyatli tomonlarga emas, ularni birlashtirib turuvchi tomonlarga e'tiborini qaratish, atrofidagilariga qarshi emas, hamkor deb qarashga o'rgatishdir. Bu yoshlarni Sidan axloqiy va huquqiy me'yorlarga amal qilgan xolda foydalanishga o'rgatish orqali, ularda zamonaviy mantiqiy fikrlash madaniyatini tarbiyalashni taqazo qiladi. Sining har inson hayotiga kirib borishi kim axborot makonini ko'proq egallasa, o'sha inson ongini boshqarishi mumkinligini isbotlamoqda. Shu bois, yoshlar integral dunyoqarashini milliy qadriyatlarimiz asosida shakllantirish bilan bog'liq bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlarini, milliy ma'naviy merosimiz aks etgan milliy kontentni rivojlantirish va boyitishdir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston.- Toshkent: "Ozbekizton" nashriyoti, 2024.
2. Наследие ал-Фараби и формирование нового интегрального мировоззрения. Коллективная монография./ Под общ.ред. З.К.Шаукеновой. – Алматы: ИФПР КН МОН РК, 2012.
3. Тураев Б.О. Маънавий меросни ўрганишда синергетик методологиянинг ўрни // Синергетика-3: маънавий мерос. Илмий тўплам. Т.: "FAN ZIYOSI" nashriyoti, 2024.
4. Уилбер К. Краткая история всего /пер.с англ. С.В.Зубкова. Москва:Аст: Астрель, 2006.
5. Falsafa asoslari.[Matn]: o'quv qo'llanma /Q.Nazarov va b. T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.
6. Falsafa. Darslik. /Z.Davronov va b. - T.: "Fan va texnologiya", 2019.
7. Shermuxamedova N. Falsafa. 2009.